



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT MEDICAL ACADEMY**

100109, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi -2-uy. Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28
Website: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz

2024 yil “13” may

01-16729 - son

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy kengashi yig‘ilishining
10-sonli BAYONI**

Toshkent shahar

«30» aprel 2024 yil

Raislik qiluvchi: Sh.A.Boymuradov

Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori v.v.b

Qatnashdilar:

Toshkent tibbiyot akademiyasining
Ilmiy kengashi a‘zolari
(ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI

1. Toshkent tibbiyot akademiyasining (keyingi o‘rinlarda – Akademiya) Urganch, Termiz va Chirchiq filiallari direktorlarining xisoboti.

Ma‘ruzachi – Urganch filiali direktori Ruzibaev Rashid Yusupovich, Termiz filiali direktori Otamurodov Furkat Abdukarimovich, Chirchiq filiali direktori Sulonov Gofur Nigmatovich.

2. 1-Davolash fakulteti hisoboti.

Ma‘ruzachi – 1-Davolash fakulteti dekani Otajonov Ilxom Otabaevich.

3. Professor-o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash.

Ma‘ruzachi – Tanlov komissiyasi raisi.

4. Dissertatsiya, monografiya va o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.

Ma‘ruzachi – O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i Azizova Feruza Xusanovna, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Muminova Ziyoda Abrarovna.

5. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo‘yildi va bir ovozdan ma‘qullandi.

QAROR QILADI:

1.Kun tartibining birinchi masalasi bo'yicha "Toshkent tibbiyot akademiyasining (keyingi o'rinlarda – Akademiya) Urganch, Termiz va Chirchiq filiallari direktorlarining xisoboti" mavzusi yuzasidan Urganch filiali direktori Ruzibayev Rashid Yusupovich, Termiz filiali direktori Otamurodov Furkat Abdukarimovich va Chirchiq filiali direktori Sultonov Gofur Nigmatovichlarning ma'lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruzalar matnda keltirilgan).

1.1.Akademiyaning Urganch, Termiz va Chirchiq filiallarining moddiy-texnik bazalarini takomillashtirishga qaratilgan, jumladan ta'mirlash-qurilish ishlarini olib borish, kerakli o'quv- texnik vositalarini (kompyuter, interaktiv doska va boshqa simulyatsion ta'limga oid asbob uskunalari) harid qilish bo'yicha rejadagi ishlar kuchaytirilsin va monitoringi olib borilishi ta'minlansin.

Mas'ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultonov.

Muddat: 2023/2024 o'quv yili davomida.

1.2.Akademiya filiallari professor-o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish maqsadida Akademiya kafedralarida mutaxassisliklar kesimida maqsadli o'qitish va malaka oshirish bo'yicha ishlar kuchaytirilishi ta'minlansin.

Mas'ul:O'quv ishlari bo'yicha prorektori Sh.A.Boymurodov, Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultonov.

Muddat: 2023/2024 o'quv yili davomida.

1.3.Akademiyaning barcha filiallarining rivojlanish strategiyasining amalga oshirish jarayonida xorijning nufuzli oliy tibbiy ta'lim muassasalari va markazlari bilan hamkorlik aloqalari, jumladan ko'shma integratsiya dasturlari, ko'shma ilmiy-tadqiqot izlanishlar, professor-o'qituvchilar va talabalar uchun akademik mobillik dasturlari, olib borilishi bo'yicha ishlar kuchaytirilsin.

Mas'ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultonov.

Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.

1.4. Filiallar professor-o'qituvchilarining o'quv va ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida nufuzli xorijiy ta'lim va ilmiy markazlar muassasalari yetakchi olimlari shartnoma asosida o'quv jarayoniga jalb etilishi ta'minlansin, shuningdek, filial o'qituvchilari xorijda o'z malakalarini oshirishlari ta'minlansin.

Mas'ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultonov.

Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.

1.5. Akademiya filiallarida ilmiy-tadqiqot ishlar sifatini oshirish maqsadida zamonaviy, yangi asbob va uskunalar, kerakli reaktivlar bilan jihozlangan laboratoriyalar, vivariy va boshqa klinik - eksperimental bo'limlar ochilishi bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilsin.

Mas'ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultonov.

Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.

1.6. Akademiya filiallarining raqamli ta'lim texnologiyalarni rivojlantirilishi, kutubxonalaridagi o'quv adabiyotlarni ko'paytirishi va yangilanishi, elektron manbalardan foydalanish samarasini oshirilishi, shuningdek Akademiyaning elektron kutubxonalaridan foydalanishi jarayonlari bo'yicha ishlar olib borilishi ta'minlansin.

Mas'ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultonov.

Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.

1.7. Barcha Akademiya filiallarining pedagoglaridan xorijiy tajribaga asoslangan holda ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalarni hamda dars jarayonlarida axborot kommunikatsion texnologiyalarni keng qo'llanishi talab etilsin va attestatsiya jarayonlarida inobatga olinsin.

Mas'ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultonov.

Muddat: Doimiy.

1.8. Akademiya filiallari professor-o'qituvchilarining ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish maqsadida pedagoglarni shahsiy rejalari bajarilishi natijalari bo'yicha rag'batlantirish yoki intizomiy chora ko'rish ishlari olib borilishi ta'minlansin.

Mas'ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultonov.

Muddat: doimiy.

1.9. Akademiya filiallarining har bir fakultet va ilmiy kengashlarida barcha kafedralar va professor – o'qituvchilar kesimida ilmiy salohiyatlari, jumladan ilmiy va o'quv mahsulotlari monitoringi muhokama qilinishi va nazoratga olinishi ta'minlansin.

Mas'ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultonov.

Muddat: doimiy.

1.10. Barcha Akademiya filiallarida tahsil olayotgan doktorantlar, magistr va klinik ordinator - talabalar uchun shart-sharoitlar tubdan yangilanishi, shuningdek, professor-o'qituvchilarning ilmiy mavzulari tasdiqlanishi va ilmiy izlanishlari uchun sharoitlar yaratilishi ta'minlansin.

Mas'ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultonov.

Muddat: doimiy.

1.11. Akademiya filiallarida iqtidorli talabalarni saralash mezonlari bo'yicha aniqlash, tarbiyalash va ular bilan maqsadli (nomdor stipendiyalarga tayyorlash, magistratura, ordinatura, doktoranturaga jalb etish) ishlash bo'yicha olib borilishi kuchaytirilsin.

Mas'ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultonov.

Muddat: Doimiy.

1.12. Akademiya filiallarning professor-o‘qituvchilari tomonidan Respublika ilmiy loyihalar tanlovlarida ishtirok etishi va ilmiy loyihalar (grant) ga ega bo‘lishi hamda xo‘jalik shartnomalar asosida ishlar olib borilishi ta‘minlansin.

Mas’ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultonov.

Muddat:Doimiy.

1.13. Urgench filiali negizida mavjud ilmiy salohiyatini inobatga olgan holda “Akusherlik va ginekologiya”, “Nevrologiya” va “Morfologiya” yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy kengash va 3 ta yo‘nalish bo‘yicha doktorantura yo‘nalishlarini ochish bo‘yicha takliflar kiritilsin.

Mas’ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev.

Muddat: 2024-yil may-iyun.

1.14. Urgench filiali negizida Integral klinik-oldi, integral klinik imtihonlar va yakuniy davlat attestatsiyalarini yagona markazlashgan baholash markazlarida o‘tkazishni joriy etish bo‘yicha takliflar kiritilsin.

Mas’ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev.

Muddat: 2024-yil iyun.

1.15. Barcha filiallarining salohiyatini oshirish maqsadida, jumladan, Chirchiq filialining o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy ishlarida Akademiya professor-o‘qituvchilarining amaliy yordam berish jarayonlari reja bo‘yicha olib borilishi ta‘minlansin.

Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova,

Muddat: 2023/2024-o‘quv yili davomida.

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi bo‘yicha “1-Davolash fakulteti hisoboti” mavzusi bo‘yicha 1-davolash fakulteti dekani Otajonov Ilxom Otaboyevichning ma‘lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma‘ruza matnda keltirilgan).

2.1.Kafedra majlislarida fanlar bo‘yicha talabalarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari muntazam ravishda muhokama qilinishi va kerakli chora ko‘rilishi ta‘minlansin.

Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, 1-davolash fakulteti dekani I.O.Otajonov, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023/2024-o‘quv yili davomida.

2.2. Talabalar tomonidan qoldirilgan darslarni qayta topshirishni talab darajasida tashkil etilishi hamda ushbu jarayon kafedralardagi tasdiqlangan navbatchi pedagoglar grafigi bo‘yicha olib borilishi ta‘minlansin.

Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, 1-davolash fakulteti dekani I.O.Otajonov, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023/2024- o‘quv yili davomida.

2.3.Talabalar bilimini Reyting Nizomiga to‘liq rioya qilinishi, o‘quv jurnallarini yuritilishini nazoratga olish hamda har bir talabaning olgan baholari o‘z vaqtida jurnalga qo‘yilishi va e‘lon qilinishi ta‘minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, 1-davolash fakulteti dekani I.O.Otajonov, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023/2024- o'quv yili davomida.

2.4.Barcha kafedralardagi yosh pedagoglarni tajribali pedagoglarga birlashtirilishi va ularni nazorat qilinishi muntazam ravishda olib borilsin va tahlil qilinsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.

2.5.Fakultet kafedralarida o'quv jarayonini zamonaviy darajada va xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda sifatini ko'tarish maqsadida o'quv reja, dasturlarni hamda amaliy ko'nikmalarni qayta ko'rib chiqilishi va yangilanishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, 1-son Davolash fakulteti dekani I.O.Otajonov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.

2.6.O'zlashtirishi past bo'lgan talabalarni aniqlash, ularning o'zlashtirishini kafedra va dekanat bilan hamkorlikda monitoringi olib borilishi ta'minlansin, shuningdek, xavf guruhini tashkil etgan talabalar bilan alohida yondashuv asosida (qo'shimcha fakultativ darslar va h.k.) olib borilishi ta'kidlab o'tilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, 1-davolash fakulteti dekani I.O. Otajonov, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023/2024- o'quv yili davomida.

2.7.Fakultet talabalarini Simulyatsion markazda amaliy darslarni tashkillashtirilishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilishi ta'minlansin.

Ma'sul: Fakultet dekanlari, Klinik modellashtirish kafedراسi mudiri D.A.Parpiboeva, 1-davolash fakulteti dekani I.O. Otajonov, barcha kafedra mudirlari va professor o'qituvchilar.

Muddat: 2023/2024 o'quv yili davomida.

2.8. Akademiyaning barcha fakultet kafedralari professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyatini oshirilishi bo'yicha reja tuzilishi va bajarilishining monitoringini olib borilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023/2024 o'quv yili davomida.

2.9.Kafedra mudirlari va professor-o'qituvchilarning talabalar bilan ma'naviy ma'rifiy ishlar olib borishlari, professor-o'qituvchi va talabalarni o'zaro hurmat saqlagan holda munosabatda bo'lishi, hamda odob-axloq qoidalari bilan tanishtirilishi ta'minlansin.

Mas'ul: Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i M.A.Xasanova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: doimiy.

2.10. Kafedralarda tashkil qilingan to'garaklardagi talabalar sonini ko'paytirilish, ularni fan bo'yicha TIJ, konferentsiya va olimpiadalarda ishtirokini faollashtirilish ta'minlansin.

Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2022/2023-o'quv yili davomida.

2.11. Barcha kafedralarning xo'jalik shartnomalari, grant loyihalarida faol ishtirok etishlari kuchaytirilsin.

Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.

2.12. Barcha Akademiya kafedralarida xodimlarning ingliz tilini bilish darajasini oshirish va sertifikatga ega bo'lishi bo'yicha ishlar jadallashtirilsin, shuningdek, Akademiya tomonidan tashkil qilingan Til markaziga xodimlarning ishtiroki kafedra mudiri tomonidan nazorat qilinishi ta'minlansin.

Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.

2.13. Barcha kafedralarda reyting qaydnomalari va reyting daftarchasini to'liq raqamlashtirilishi ta'minlansin, shuningdek dekan va barcha kafedra mudirlari elektron imzo orqali to'liq ish yuritilishlari ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuratov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari.

Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.

2.14. Fakultetga qarashli ilmiy salohiyati 50% dan past bo'lgan kafedra (psixiatriya va narkologiya, 1-son umumiy va bolalar xirurgiyasi, 1-son ichki kasalliklari propedevtikasi, normal va patologik fiziologiya) xodimlarning ilmiy ishlari bajarilishi monitoringi yuritilishi ta'minlansin va nazoratga olinsin.

Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A. Muminova, 1-davolash fakulteti dekani I.O. Otajonov, kafedra mudirlari.

3. Kun tartibining keyingi masalasi "Professor-o'qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash" bo'yicha ilmiy kotib G.A.Ismailova professor ilmiy unvoniga talabgorlar: 19.00.04 – Tibbiy va maxsus psixologiya ixtisosligi bo'yicha pedagogika, psixologiya va tillar kafedrasi mudirii, dotsent R.N.Melibaeva, 14.00.13 – nevrologiya ixtisosligi bo'yicha nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasi professori M.M.Yakubova, dotsent ilmiy unvoniga talabgorlar: 14.00.17 – Farmakologiya va klinik farmakologiya ixtisosligi bo'yicha farmakologiya kafedrasi dotsentlari

M.A.Mamadjanova, X.X.Pulatov, 14.00.05 – ichki kasalliklar ixtisosligi bo'yicha 2-son ichki kasalliklar propedeutikasi kafedrasida dotsenti X.M.Marufxanov, 14.00.01 - Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha oilaviy tibbiyotda akusherlik va ginekologiya kafedrasida dotsenti M.A.Sidixodjaeva, 14.00.13 – Nevrologiya ixtisosligi bo'yicha nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasida dotsenti F.K.Shermuxamedova, 14.00.05 – Ichki kasalliklar ixtisosligi bo'yicha 2-son fakultet va hospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrasida dotsenti L.D.Tursunova nomzodlari tomonidan ariza tushganligi haqida ma'lumot berdi va hujjatlari bilan kengash a'zolarini tanishtirdi. So'ng saylov o'tkazildi (saylov hay'ati a'zolari va natijalari 1-ilovada keltirilgan).

4. Kun tartibining keyingi masalasi "Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash" bo'yicha O'quv-uslubiy bo'limi boshlig'i F.X. Azizova va Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdi. (2-va 3-ilovada keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga quyildi.

5. Turli masalalar bo'yicha Yoshlar masalalari va ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A. Bobomuratov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, magistratura bo'limi boshlig'i A.A.Imamov, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i R.I.Turakulovlar so'zga chiqdilar.

5.1.2024/2025-o'quv yilining 2-6 kurs talabalari uchun Akademiyaning barcha ta'lim yo'nalishlarining o'quv (fan) dasturlari O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, Fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 9-iyunagi "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-sonli buyrug'ining 2-ilovasiga muvofiq:

- Akademiyaning barcha ta'lim yo'nalishlari 2023-o'quv rejasi asosida tuzilgan 2-kurs talabalarining fan (o'quv) va syllabus dasturlari ro'yxati 1-ilovaga muvofiq;

- Akademiyaning barcha ta'lim yo'nalishlari 2022-o'quv reja asosida 3-6-kurs talabalarining fan (o'quv) va syllabus dasturlari ro'yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va o'quv jarayoniga tadbiq etilsin.

5.2. 2024-2025 o'quv yili qabul komissiyasi mas'ul kotibi etib xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor Israilov Jaxongir Jamshidovich tavsiya etilsin.

Qaror bir ovozdan qabul qilindi va tasdiqlandi. Ilmiy Kengash o'z ishini yakunladi.

Rektor v.v.b.



Sh.Boymuradov

Ijrochi: G.Ismailova
ID: 543835
Sana: 13.05.2024